



THE ENLIGHTENMENT ACTIVITY OF AHMAD DONISH

Bobir Zokirovich Miltikboyev

Independent Researcher

National University of Uzbekistan

bobirzokirovich@gmail.com

Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: Ahmad Donish, spiritual perfection, morality, education, national values, social thought, philosophical heritage, younger generation, moral development, education system.

Received: 03.02.26

Accepted: 04.02.26

Published: 05.02.26

Abstract: The article is devoted to the study of Ahmad Donish's enlightenment activity. The research analyzes Donish's views on science, education, societal development, and the upbringing of the younger generation. His works reflect issues such as encouraging individuals to pursue enlightenment, acquire knowledge, and engage in social activity. The article also discusses Donish's enlightenment activities and their significance in contemporary educational and upbringing processes.

AHMAD DONISHNING MA'RIFATPARVARLIK FAOLİYATI

Bobir Zokirovich Miltiqboyev

Mustaqil izlanuvchisi

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti

bobirzokirovich@gmail.com

Toshkent, O'zbekiston

MAQOLA HAQID

Kalit so'zlar: Ahmad Donish, ma'naviy kamolot, axloq, tarbiya, milliy qadriyatlar, ijtimoiy fikr, falsafiy meros, yosh avlod, axloqiy rivojlanish, ta'lim tizimi.

Annotatsiya: Ahmad Donishning ma'rifatparvarlik faoliyatini o'rganishga bag'ishlangan. Tadqiqotda Donishning ilm-fan, ta'lim, jamiyat taraqqiyoti va yosh avlodni tarbiyalashga oid qarashlari tahlil qilinadi. Muallifning asarlarida insonni ma'rifatga, bilim olishga va ijtimoiy faollikka chaqirish kabi masalalar o'z aksini topadi. Maqolada Donishning ma'rifatparvarlik faoliyati va uning zamonaviy ta'lim va tarbiya jarayonidagi ahamiyati ham muhokama qilinadi.

ПРОСВЕТИТЕЛЬСКАЯ ДЕЯТЕЛЬНОСТЬ АХМАДА ДОНИША

Бобир Закирович Милтиқбоев*Независимый исследователь**Национальный университет Узбекистана имени Мирзо Улугбека*bobirzokirovich@gmail.com*Ташкент, Узбекистан*

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Ахмад Дониш, духовное совершенство, нравственность, воспитание, национальные ценности, социальные взгляды, философское наследие, молодое поколение, нравственное развитие, система образования.	Аннотация: Статья посвящена изучению просветительской деятельности Ахмада Дониша. В исследовании анализируются взгляды Дониша на науку, образование, развитие общества и воспитание молодого поколения. В его произведениях отражаются вопросы призыва человека к просвещению, получению знаний и социальной активности. В статье также обсуждается просветительская деятельность Дониша и её значение в современных образовательных и воспитательных процессах.
--	---

Kirish. Bugungi kunda jahonning rivojlangan mamlakatlari tobora kuchayib borayotgan globalizatsiya jarayonida tamaddunlar rivojiga hissa qo'shgan allomalar merosiga doimiy ravishda murojaat qilmoqdalar. Ularning tarixiy zaruriyat sababli vujudga kelgan ilmiy meroslari hamda tarixiy tajribalaridan ilm-fan rivoji va kelajak avlodni tarbiyalashda keng foydalanilmoqda. Shu bois, xalqaro hamjamiyat tomonidan qabul qilingan uzoq istiqbollik ijtimoiy-madaniy dasturlar doirasida ma'rifatparvarlarning betakror ma'naviy merosini o'rganish va bu orqali millatlarning ma'naviy-milliy o'zligini anglashga ko'maklashish asosiy vazifalar sifatida belgilangan.

Dunyoning yetakchi ilmiy markazlarida XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda jadidchilik harakatining tarixiy ildizi hisoblangan ma'rifatparvarlikning shakllana boshlagani hamda yetakchi namoyandalarning mamlakat madaniy-siyosiy hayotidagi o'rni va ilm-fan rivojiga qo'shgan hissasi o'rganilmoqda. Xususan, bu harakatlarning tashabbuskori bo'lgan va qomusiy ijodi bilan tanilgan Ahmad Donishning ma'rifatparvarlik faoliyati hamda jamiyatni isloh qilish to'g'risidagi g'oyalari ham jahon ilmiy jamoatchiligi tomonidan munosib baholamoqda.

O'zbekistonda so'nggi yillarda buyuk ma'rifatparvar ajdodlarimizning ilg'or qarashlari va ilmiy-ijodiy meroslariga e'tibor tobora kuchayib bormoqda. Zero, "Necha yuz yillik tarix va madaniyatimiz, milliy o'zligimizning ajralmas qismiga aylangan ajdodlarimizning bebaho

ma'naviy-ma'rifiy merosini o'rganish va targ'ib etish biz uchun doimiy kun tartibida turgan muhim masala bo'lib qolmoqda." Shu jumladan, XIX asr ikkinchi yarmida Buxoro amirligida madaniy-siyosiy jarayonlar inqirozli holatga kelgan vaziyatda qomusiy alloma Ahmad Donish shaxsiyatining yetishib chiqishi, ma'rifatparvarlik qarashlarining shakllanishi, ularning o'z davri va bugungi kundagi ahamiyati mavzu dolzarbligini tashkil etadi.

Adabiyotlar tahlili. Ahmad ibn Mir Nosir ibn Yusuf al-Khanafiy as-Siddiqiy al-Bukhariy (1827–1897) o'z davrining ko'plab ilm-fan sohalarini puxta egallagan va ular asosida boy ilmiy meros qoldirgan qomusiy bilim sohibidir. U tarixan murakkab davrda faoliyat yuritgan bo'lsa-da, har bir asarida ma'rifatparvarlikni targ'ib qilib, zamondoshlari orasida "Donish", ya'ni bilimdon nomi bilan mashhurlik qozongan.

Ahmad Donishning hayot yo'lini shartli tarzda to'rt bosqichga ajratish mumkin: birinchi bosqich 1836–1850 yillar o'quvchi va talabalik davri; ikkinchi bosqich 1850–1875 yillar saroy xizmatidagi davri; uchinchi bosqich 1875–1885 yillar qozilik faoliyati davri; to'rtinchi bosqich 1885–1897 yillar ilmiy-ijodiy faoliyat davri hisoblanadi. Boshlang'ich va madrasa ta'limi, xattotlik, saroydagi faoliyat, xususan mirzalik, bosh muhandislik, munajjimlik, shuningdek, safarlar (xorijiy va mahalliy), qozilik va kitobdorlik kabi faoliyatlar ma'rifatparvarlik yo'nalishlarining shakllanishiga asos bo'ldi.

Ular orqali egallangan boy hayotiy tajribalarga tayangan holda, Donish siyosiy-falsafiy, axloqiy-diniy, tarixshunoslik, tabobat, musavvirlik va musiqa sohalarida boy ilmiy meros yaratdi. Uning serqirra ijodi va beqiyos qobiliyati zamondoshlari tomonidan yuksak e'tirof etildi. Xususan, alloma bilan yaqindan maslakdosh bo'lgan Sharifjon Makhdum (Sadr Ziyoning "Navodiri Ziyaiya" asarida, Amir Abdulahad saroyida xizmat qilgan Afzal Pirmastiy tazkirasida, S. A'yniyning "Buxoro inqilobi tarixi uchun materiallar" asarida Ahmad Donishga yuksak baho berilgan. Shuningdek, bir necha asarlarini qayta ko'chirgan Siddiqxon Hashmat ham Donishning barcha ilm-fan sohalaridan xabardor ekanligini tan oladi va vafotidan qayg'uiga tushib, marisi bitadi. Ahmad ibn Nosir, Ahmad Kalla, Qozi mullo Mir Ahmad O'roq ibn Mulla Mir Nosir as-Siddiqiy, Ahmad Muhandis, Ahmad Makhduimi Kalla kabi taxalluslar bilan ijod qilgan ma'rifatparvar Ahmad Donishning ilmiy merosini tarixshunoslik, diniy-axloqiy va tabiiy fanlarga oid asarlarga ajratib tahlil qilish maqsadga muvofiqdir.

Muxokama va natija. XIX asrning ikkinchi yarimida Rossiya imperiyasi mustamlakachilik siyosatini oshkora namoyon qila boshladi. Bu xavfni sezgan Amir Nasrullo (hukmronlik davri: 1826–1860) hududiga tahdid solayotgan Rossiya imperiyasi haqida kengroq ma'lumot to'plashni dolzarb vazifa sifatida belgiladi. Buning uchun keng dunyoqarashli, bilimdon shaxs zarur edi. Shu paytda (1857 y.) Donish o'zining bilimdonligi va ziyorakligi bilan

amir e'tiboriga tushdi. Shuning uchun u 30 yoshida Peterburgga yuboriladigan maxsus elchilar tarkibiga bosh kotib sifatida kiritildi. Ahmad Donish uch marta Buxoro amirligining elchilari mirzasi sifatida Rossiya imperiyasida bo'ldi. Uning Peterburgga birinchi safari 1857 yil 9 yanvardan 1858 yil 11 yanvargacha; ikkinchi safari 1869 yil 2 oktabrdan 10 dekabrgacha; uchinchi safari 1874 yil yanvardan 1874 yil maygacha davom etdi. Ilg'or taraqqiyot va ko'plab yangiliklar bilan tanishuv uning ma'rifatparvarlik faoliyati va boy ilmiy merosini yaratishiga munosib hissa qo'shdi.

Mustamlakachilik xavfi oshib borayotganini birinchilardan bo'lib sezgan Ahmad Donish hukmdor Amir Muzaffarga bu xavfni diplomatik yo'l bilan bartaraf etish lozimligini ta'kidlab, qarashlarini qat'iy bayon etdi. Shu maqsadda, safarlarda olgan hayotiy tajribalariga tayangan holda, davlatning tashqi siyosatdagi manfaatlarini himoya qiladigan va ularni amalga oshiradigan vakil-elchilarni tanlash hamda ularning ko'nikmalarini shakllantirish bo'yicha maxsus takliflar ishlab chiqdi. Unga ko'ra, elchi quyidagi ko'nikmalarga ega bo'lishi zarur: teran fikrli, o'tkir tili, shirin so'zli, yumshoq xulqli; so'z va fahm quvvatiga ega, ya'ni notiqlik qobiliyati yuqori bo'lishi; har so'zni o'z o'rnida qo'llay oladigan, borgan mamlakatdagi xalqning tili, dini va odatlariga tushungan kishi bo'lishi lozim.

Donish davlat rahbariga boshqa mamlakatlardan kelgan elchilar bilan munosabatda bo'lish to'g'risida quyidagi takliflarni ishlab chiqdi: sulton atrofdan kelgan vakil va elchilarga munosib hurmat ko'rsatishi; elchi yuborgan mamlakat podshosiga, qanchalik adovat yoki dushmanlik bo'lsa ham, uning nomi tilga olinayotganda odob va hurmat bilan so'zlash lozim. Chunki bu ish ikki davlatning totuvligiga olib keladi.

Ahmad Donishning ilg'or ma'rifatparvarlik g'oyalarining shakllanishida Rossiya imperiyasining davlat boshqaruvi bilan tanishishi muhim ahamiyat kasb etdi. Ammo ma'rifatparvar Rossiyaning ijtimoiy, madaniy, siyosiy-iqtisodiy jabhalarini yetarlicha chuqur o'rganishga muvaffaq bo'lmadi. XIX asrning ikkinchi yarimida rus jamiyatida rivojlanayotgan ilg'or demokratik fikrlar haqida bir necha davralardagi suhbatlarda tanishgan bo'lsa-da, aniq tasavvurga ega emas edi. U o'sha davrda Rossiyaning texnik taraqqiyoti va madaniy yutuqlarini kuzatib, o'z mamlakatida shunday yuqori darajaga erishish va mustamlakachilik xavfini bartaraf etish mumkin degan qat'iy xulosaga kelgan edi.

Ahmad Donishning serqirra hayotiy tajribasi mahsuli hisoblangan "Navodir ul-vaqoe" ("Nodir voqealar") asari allomaning ijtimoiy-siyosiy, ma'naviy-axloqiy, tabiiy-falsafiy yo'nalishga oid teran qarashlari hamda keng dunyoqarashini anglashda muhim o'rin tutadigan qomusiy asar hisoblanadi. Aynan mazkur asar Donishni mohir islohotparvar, tarixnavis, tabiatshunos mutafakkir va qomusiy alloma sifatida namoyon etadi. Ushbu asar allomaning eng

yirik asari hisoblanib, turli masalalar to'g'risidagi fikrlari bayon etilgan. Asardagi maxsus risola va hikoyalar Donish ilmiy merosi shakllanishining turli davrlarida (1868–1873 y.) yozilgan bo'lib, muallif uni 1875–1882 yillar oralig'ida qayta tahrir va tavsiflab, 15 yil davomida to'liq kitob shakliga keltirgan. Bugungi kunda O'zbekiston, Tojikiston va Rossiya Fanlar akademiyasi Sharq qo'lyozmalari institutlarida risolaning 9 ta qo'lyozma nusxasi saqlanmoqda.

“Navodir ul-vaqoe” asarini shartli ravishda mazmunidan kelib chiqib, uch tarkibiy qismga bo'lish mumkin: birinchi – mamlakatda islohotlarni nazarda tutuvchi maxsus risola; ikkinchi – muallif o'zi bevosita guvohi bo'lgan voqealar to'g'risidagi safarnoma xotiralari; uchinchi – tarbiyaviy axloqiy ahamiyatga ega bo'lgan hikoyalar bayoni.

Ahmad Donish safarlar natijasida shakllangan va mamlakatni tubdan isloh qilish bo'yicha “Navodir ul-vaqoe”ga alohida asar sifatida kiritilgan eng yirik “Madaniyat va o'zaro ko'maklashish tartibi haqida”gi risolani Amir Muzaffarga taqdim etadi. Unda amir va amaldorlarning xalq bilan muloqotda bo'lish tartib-intizomlari; amirning davlat arboblari, olimlar va harbiylar bilan hamkorlikda ishlash usullari; mamlakat mudofaa qobiliyatini oshirish bo'yicha tavsiyalar, davlat ahamiyatiga molik masalalarni maslahatlashadigan Majlis tuzish va uning samaradorligi haqida fikrlarini bayon etadi. Donish risolada Buxoro madrasalaridagi ta'lim tizimini keskin tanqid qiladi va dunyoviy fanlarni o'rganishga qunt bilan kirishish lozimligini ta'kidlaydi. Barcha uchun, ayniqsa, imkoniyati cheklanganlar uchun ilm olishga sharoit yaratish lozimligi to'g'risida qat'iy xulosaga keladi.

Donishning ilg'or qarashlari o'z davri uchun yangilik bo'lib, hukmdor doiralar ularni qabul qila olmas edilar. Uning asarlarida bayon etilgan fikrlar, avvalambor, davlatchilik huquqini shakllantirish, ijtimoiy-iqtisodiy yuksalishlarga erishish, inson manfaatlariga birinchi darajali ahamiyat berish uchun tashqi va ichki siyosatda muhim o'zgarishlar yasab, Buxoro amirligidagi mavjud tuzumni ma'rifat bilan isloh qilishga qaratilgan edi. Islohotchilik takliflari faqatgina xorijiy mamlakatlar tajribasi asosida shakllanmagan edi. U nafaqat o'zi guvohi bo'lgan Rossiya, balki Eron, Turkiya, Yevropa va hatto Amerika tajribalari to'g'risida shu davr matbuoti orqali yaxshi tanish edi. Biroq jahon tajribalarini o'rgansa-da, ulardan andoza olmadi. Aksincha, batafsil tahlil etib, islohot dasturlarini milliy xususiyatlar va tajribalar negizida ishlab chiqdi.

Donish muqaddimada mamlakatning taraqqiyotga yoki tanazzulga yuz tutishiga sabab bo'ladigan omillar to'g'risida Islom dini va falakiyot talqinlariga tayangan holda javob topishga harakat qiladi. Dunyoning bardavom rivojlanishida islohotchi, ya'ni ma'lum bir toifadagi shaxslarning tutgan o'rni xususida to'xtalib, “Taraqqiyot va vayronalik olam va uning ahli hayotiga ta'sir qilish orqali ming yilcha davom etadi. Dunyo tarixining ming yilliklari va yuz yilliklari tarixida taqvodor shaxslar yetishib chiqib, unga “mujaddidi alfi” va “mujaddidi mia”

deyiladigan iqtidorlu podsholar va qomusiy olimlar sifatida yangidan hayot baxsh etadilar... Shubhasiz, rivojlanish har bir millatdan yetishib chiqqan yetuk mujaddidlar tufayli sodir bo‘ladi” , – deb yozadi. Donish ushbu risolani yaratishda o‘z oldiga ma’lum maqsadlarni qo‘ygan edi. U bu holatni, mang‘it shahzodalari uchun dasturulamal yaratish, yaxshi maslaklarga amal qilishi bo‘yicha yo‘l ko‘rsatish, saltanatga zarar yetkazadigan narsalardan o‘zlarini tortishlari lozimligini uqtirish, zamon va makonga to‘g‘ri keladigan tarzda amirlik nizomini yaratish ekanligi bilan izohlaydi.

Risolada boshqa turdosh asarlarda uchramaydigan va ayni paytda muallif tomonidan ilgari surilgan mamlakat rivoji uchun muhim taklif va tarixiy voqealarga ham duch kelinadi. Xususan, xalqning farovon turmushini yaxshilash va mamlakat iqtisodiyotini isloh qilish bo‘yicha taklif etilgan keng qamrovli iqtisodiy dastur; muarrixning o‘zi bevosita ishtirok etgan Rossiya-Buxoro elchilik aloqalarining ayrim tafsilotlari; Buxoro va uning atrof vohalarining suv ta‘minotini yaxshilash bo‘yicha loyiha; mamlakatning foydali qazilmalarini o‘zlashtirish va u orqali xalq turmushini yaxshilash bo‘yicha takliflar; bozorlaridagi jamiyat muammolarini o‘zida ifodalovchi xalq tomoshalarining tasviri; Buxoro amirligi ahvoli to‘g‘risida muallif xulosalari.

Ahmad Donishning diniy-axloqiy yo‘nalishdagi qarashlari “Me‘yor ut-tadoyyun” (“Iymon mezonlari”) asarida o‘z ifodasini topgan. Donish asar muqaddimasida uni yaratishga turtki bergan omillarga batafsil to‘xtalar ekan, o‘z zamonasida amirlik ichki vaziyatiga rahna soluvchi turli mazhablar bo‘lganligi va ularni bag‘rikenglikka chaqirish zarurligini ta‘kidlaydi.

Hijriy 1311 (milodiy 1894) yilda yozilgan asar: muqaddima, 3 fasl va xotimadan iborat. Birinchi: “Iymon keltirish mezonlari va dindorlik talablar” deb nomlangan faslda din va dindorlikni o‘rganish, iymon yo‘lida to‘g‘ri yo‘lni topish va ularning mohiyatini anglash hamda poklikka erishishning besh asosiy sharti keltirilgan. Ikkinchi: “To‘rt guruh – Islom, yahudiy, nasroniy dinlari va shia mazhabi orasidan to‘g‘ri e‘tiqodni tanlash” fasli har biri o‘z e‘tiqodining to‘g‘riligiga da‘vogarlik qilishga harakat qiluvchi guruhlarining asl mohiyatini anglab olish va eng to‘g‘ri e‘tiqodni tanlash masalasiga bag‘ishlangan. Uchinchi fasl: “Turli diniy oqim vakillari bilan murosaga kelish haqidagi to‘g‘ri yo‘l” deb nomlanib, turli buzgunchi g‘oyalarni targ‘ib qiluvchi va chin e‘tiqodga erishishga mone‘lik qiluvchi diniy muxolifat guruhlarini o‘zaro yarashtirish haqida allomaning takliflari bayon etilgan. Xotima, ya‘ni “Dindorlik va diyonat alomatlari to‘g‘risida muallifning e‘tirozlari” nasihatnoma shaklida bo‘lib, mavjud diniy tartiblar to‘g‘risidagi muallif e‘tirozlaridan iborat.

Muqaddimada Ahmad Donish o‘z davrining muhim tarixiy hodisalari va Rossiya imperiyasining istilochiligi to‘g‘risida dalillar keltiradi. Xususan, Samarqandning istilo etilishini quyidagicha tasvirlaydi: “Rus podshosi o‘zining sakkiz ming askariga Mavaro‘unnahrni bosib

olishni buyurdi. Ular buyruqni ado etdilar va nihoyat Buxorogacha yetib kelishdi”. Muallif Samarqandning qo‘ldan ketishiga sabab bo‘lgan omillarni ham sanab o‘tadi. Buxoro hukmdorlari Nasrullo va Muzaffarning ichki va tashqi siyosatda yo‘l qo‘ygan xatolari hamda ularning tadbirsizligi tufayli Samarqand qo‘ldan ketganini bayon etadi.

Asarda ilm-ma‘rifat masalasiga ham alohida e‘tibor qaratib, alloma o‘z fikrini quyidagicha ifodalaydi: “Xulosa qilib aytganda, ilm va ma‘rifat aqlning natijasidir va aqlning mukammalligi ilmda namoyon bo‘ladi. Ma‘rifat ajdodlarning ilmiy merosiga asoslanishi kerak. Bizning zamonda esa ilm uxlab yotgan yoki o‘lik odamga o‘xshaydi. Demak, diniy ilm va dunyoviy ta‘lim tushunarli emas va bir-biriga zid kelmoqda”.

“Me‘yor ut-tadoyyun”ning uchinchi faslida, asosan, diniy nizolar masalalariga to‘xtaladi. Diniy bag‘rikentlik va dinlararo totuvlikni ta‘minlash bo‘yicha o‘z xulosalarini keltiradi. Diniy qarama-qarshiliklar, xususan, shia va sunniylarning o‘zaro nizolariga barham berish yechimlarini izlashga harakat qiladi. Ikki oqim o‘rtasidagi qarshiliklarning tub negizlariga e‘tibor berib, sabablarini izlaydi. Donish Buxoroda diniy nizolar o‘zining avj nuqtasiga chiqishidan o‘n besh yil avval ushbu nozik masalaga hukumat diqqatini qaratmoqchi bo‘lganligini alohida ta‘kidlash lozim. O‘zining diniy mazmundagi asarida nizolarni bartaraf etish choralari ko‘rishga da‘vat etadi. Zudlik bilan islohotlar qilinmas ekan, qonli mojarolar kelib chiqishidan ogohlantiradi.

Xulosa. Ahmad Donish XIX asrning ikkinchi yarmida Buxoro amirligi ijtimoiy-siyosiy va ma‘naviy hayotida muhim o‘rin tutgan yirik ma‘rifatparvar mutafakkir sifatida namoyon bo‘ladi. Uning boy ilmiy-ijodiy merosi jamiyatni isloh qilish, ilm-fan va ta‘limni rivojlantirish, inson manfaatlarini ustuvor qo‘yish g‘oyalariga asoslanadi. Donish o‘z asarlarida davlat boshqaruvi, iqtisodiyot, ta‘lim tizimi, ijtimoiy adolat hamda axloqiy-me‘yoriy masalalarni chuqur tahlil qilgan holda, jamiyat taraqqiyotining asosiy omili sifatida ma‘rifat va ilmni ilgari suradi.

“Navodir ul-vaqoe”, “Risola yoxud mang‘itlar xonadoni saltanatining qisqacha tarixi” hamda “Me‘yor ut-tadayyun” kabi asarlari orqali Ahmad Donish nafaqat tarixnavis va islohotchi, balki keng dunyoqarashga ega bo‘lgan qomusiy olim sifatida namoyon bo‘ladi. U o‘z davridagi siyosiy va diniy qarama-qarshiliklarning ildizlarini aniqlashga harakat qilib, ularni bartaraf etishda diniy bag‘rikenglik, ijtimoiy totuvlik va ma‘naviy poklik tamoyillarini asosiy mezon sifatida ko‘rsatadi. Donish tomonidan ilgari surilgan “usuli hamsa” konsepsiyasi jamiyatda axloqiy barqarorlikni ta‘minlashga qaratilgan muhim g‘oyaviy asos hisoblanadi.

Shuningdek, mutafakkirning xorijiy davlatlar tajribasini chuqur o‘rganib, uni milliy qadriyatlar va tarixiy sharoit bilan uyg‘unlashtirishga intilgani uning islohotchilik faoliyatining o‘ziga xos jihatini tashkil etadi. Ahmad Donishning ilm-ma‘rifat, adolatli boshqaruv, diniy totuvlik va ijtimoiy taraqqiyot haqidagi qarashlari bugungi globallashuv sharoitida ham o‘z

dolzarbligini yo'qotmagan. Shu bois uning merosini o'rganish nafaqat tarixiy ahamiyatga ega, balki zamonaviy jamiyatni ma'naviy va intellektual jihatdan rivojlantirishda muhim ilmiy-nazariy asos bo'lib xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Аҳмад Дониш. Рисола ёхуд манғитлар хонадони салтанатининг қисқача тарихи (Таржима, изоҳлар ва кириш сўзи муаллифи Қ.Ўлдошев). – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2014. - 144 б
2. Jumayeva N. Sharq allomlarining ilmiy merosi. “Durdona nashriyoti”. Buxoro - 2022.B-76.
3. ЎзР ФА ШИ, анжом рақами: 4266 (1352 х./1933 м. Кўчирувчи: Ибодилло Адилов); анжом рақами: 2095 (1328 х./1909 м. Кўчирувчи: Мулла Нишон ибн Муҳаммад Юсуфи Хўканди); анжом рақами: 814 (1321 х./1903 м. Кўчирувчи: Қори Муҳаммад Шариф); анжом рақами: 5693 (Кўчирувчи: Иброҳимхўжа Мирохўр); Бухоро давлат бадиий меъморчилик музей-қўриқхонаси, анжом рақами: 13943/11 (1339 х./1921 м. Кўчирувчи: Муҳийуддин Ожиз).
4. Аҳмади Дониш. Наводир-ул-вақое. Китоби 1. (Муҳаррирони масъул: Р. Ҳодизода, А. Девонакулов) Душанбе: Дониш, 1988. – С. 5.
5. Аҳмад Махдуми Дониш. Рисола ё мухтасаре аз таърихи салтанати хонадони манғития (Таҳияи матн ба алифбои кириллии тоҷики ва тасҳеҳу ва тавзеҳот ва шарҳи луғот аз Аҳмад Ҳочизодаи Мадрушкатӣ). Душанбе: Дониш, 2010. – С. 18.